

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
4-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный
журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY' ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,

Axmedov Durbek Qudratillaevich, i.f.d., professor

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,

Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,

Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,

Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor

Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.

Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor

Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor

Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)

Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor

Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)

Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD

Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD

Asqarova Muhabbat Ibraximovna

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Абдурахманов Каландар Ходжаевич

Модель компетенций и траектории повышения квалификации в профессиональном образовании в условиях внедрения искусственного интеллекта..... 5

Зокирова Нодира Каландаровна

Человеческий капитал и креативная экономика регионов Узбекистана оценка потенциала и точки роста..... 19

Усманов Анвар Саидмахмудович

Теоретический аспект устойчивого экономического роста..... 32

Мамадалиева Хафиза Холдаровна

Ўзбекистондаги демографик ўзгаришлар ва уларнинг иқтисодий ўсишга таъсири..... 43

Каримова Дилдора Мирсабитовна

Перспективы трансформации демографического потенциала узбекистана в демографический дивиденд..... 52

Саиджаббор Шоира Саидгаффор кизи

Экономическая самостоятельность женщин — историческая эволюция, изменение роли женщин на рынке труда и влияние социально-экономических факторов..... 60

Карабаева Гулнора Шарафитдиновна

Роль креативного сектора в обеспечении молодёжной занятости на рынке труда..... 69

Eshqulova Xilola Shoyimqul qizi, Muradova Alina Anvar qizi

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida xizmat ko'rsatish sohasidan samarali foydalanish istiqbollari..... 78

Кахрамонов Хуршиджон Шухрат угли

Современные подходы к обеспечению конкурентоспособности предприятий жилищно-коммунального хозяйства..... 85

Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li

Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri: imkoniyatlar va xavf-hatarlar..... 90

Abdurahmonov Azizbek Akram o'g'li

Investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy kapital uchun institutsional sharoitlarni takomillashtirish..... 96

Ilyasova Barno Axmadovna

qtisodiyot tarmoqlarini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirish samaradorligini oshirish xususida..... 102

Matkarimova Intizor Atabaevna <i>O'zbekiston hududida aholini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik.....</i>	109
Khudoyberdiev Sardor Ismailovich <i>The impact of small entrepreneurship on the socio-economic development of regions in our country and its econometric analysis.....</i>	119
Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li <i>Innovatsion iqtisodiyot sharoitida tikuv-trikotaj korxonalarida mehnat bozorining transformatsiyasi va ishlab chiqarishni samarali tashkil etish mexanizmlari.....</i>	129
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li <i>Atrof-muhit o'zgarishlari sharoitida iqtisodiy xavfsizlikning strategik ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish istiqbollari.....</i>	134
Egamnazarov Khusniddin Fakhriddin ugli <i>Integrating international experience into sustainable tourism development: evidence from Uzbekistan.....</i>	141
Mirzaeva Matluba Gaybulla kizi <i>Digitalization of the banking sector in Uzbekistan: drivers and implications for financial stability.....</i>	152
Nasirova Nargiza Tursunpulatovna <i>Namangan viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....</i>	163
Shaxidova Dilafruz Muxtarovna <i>Kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlardan foydalanish holati: uning muammolari va yechimlari.....</i>	172
Bobomuradova Sarvinoz Ziyadullayevna <i>The algorithm for forming transfer prices in trade enterprises and their role in segment reporting.....</i>	180
Batirov Farxad Bakitovich <i>Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish orqali zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi.....</i>	189
Abdullayeva Aziza Murot qizi <i>Ipoteka kreditlash bozorini rivojlantirish istiqbollari.....</i>	194
Alimov Fazliddin Xalimovich <i>Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyatini iqtisodiy- statistik tahlili.....</i>	201
Bahriddinova Muazzam Azam qizi <i>XItoy davlatida kambag'allikni qisqartirish siyosati.....</i>	209

IPOTEKA KREDITLASH BOZORINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Abdullayeva Aziza Murot qizi

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti

Bank hisobi auditi o'qtuvchisi

ORCID:0009-0003-5290-8037

aabdullaevaz@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu tezisdan ipotekani kreditlashni takomillashtirish, ipoteka bozorining hozirgi holati, asosiy muammolar va qarz oluvchilarga ham, qarz beruvchilarga ham foyda keltiradigan yanada adolatli va mustahkam tizim yaratish uchun yechimlar, ipoteka kreditlarining umumiy statistikalari to'g'risida to'liq bayon qilingan.

Kalit so'zlar: ipotekani kreditlash, uy-joy mulkdorligi, ipoteka bozori, kapital, kredit reytingi, Ipoteka sug'urtasi, iqtisodiy o'sish.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ РЫНКА ИПОТЕЧНОГО КРЕДИТОВАНИЯ

Абдуллаева Азиза Мурот кизи

Ташкентский государственный экономический университет

Преподаватель кафедры банковского учета и аудита

Аннотация. В данной тезисе подробно рассмотрены вопросы совершенствования ипотечного кредитования, современное состояние ипотечного рынка, основные проблемы и решения, направленные на создание более справедливой и устойчивой системы, приносящей пользу как заемщикам, так и кредиторам, а также представлены общие статистические данные по ипотечным кредитам.

Ключевые слова: ипотечное кредитование, жилищная собственность, ипотечный рынок, капитал, кредитный рейтинг, ипотечное страхование, экономический рост.

PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF THE MORTGAGE LENDING MARKET

Abdullayeva Aziza Murot qizi

Tashkent State University of Economics

Lecturer at the Department of Banking Accounting and Audit

Annotation. *This thesis provides a comprehensive analysis of the improvement of mortgage lending, the current state of the mortgage market, the main problems and potential solutions aimed at creating a more equitable and sustainable system that benefits both borrowers and lenders, as well as general statistical data on mortgage loans.*

Keywords: *mortgage lending, home ownership, mortgage market, capital, credit rating, mortgage insurance, economic growth.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida aholining uy-joy bilan ta'minlanishi va ipoteka kreditlash tizimining samarali faoliyat yuritishi mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligida muhim o'rin tutadi. So'nggi yillarda O'zbekistonda ipoteka kreditlash mexanizmlarini takomillashtirish va aholining turar-joy sharoitlarini yaxshilashga qaratilgan islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda.

2025-yilning dastlabki yarmidagi statistik ma'lumotlar ipoteka kreditlash bozorining jadal sur'atlarda o'sayotganini ko'rsatadi. Jumladan, berilgan ipoteka kreditlari hajmi 9,44 trln so'mga yetib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 37,1% ga oshdi. Qolgan qarzдорlik hajmi esa 72,8 trln so'mni tashkil etdi. Qarzдорlar sonining 20,6% ga ortishi va o'rtacha ipoteka hajmining 298,6 mln so'mga yetishi aholining uy-joy sotib olishga bo'lgan ehtiyoji oshayotganini ko'rsatmoqda.

Shu bilan birga, ipoteka kreditlashda davlat moliyalashtirishining yuqori ulushi – 67,7% darajasida saqlanib qolayotgani, tijorat banklari ulushining esa kamayishi bozorning to'liq erkinlashmaganidan dalolat beradi. Bu esa uzoq muddatli barqarorlik va moliyaviy resurslarning yetarli bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli ipoteka kreditlash mexanizmlarini diversifikatsiya qilish, qayta moliyalashtirish tizimini rivojlantirish va aholining barcha qatlamlari uchun teng imkoniyatlar yaratish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mazkur maqolada ipoteka kreditlash bozorining hozirgi holati, rivojlanish tendensiyalari, mavjud muammolar va ularni hal etish yo'llari ko'rib chiqiladi hamda 2025-yilgi statistik ma'lumotlar asosida istiqboldagi ustuvor yo'nalishlar aniqlab beriladi.

Adabiyotlar sharhi.

Ipoteka kreditlash bozorini rivojlantirish masalasi xalqaro miqyosda ham, O'zbekiston sharoitida ham keng tadqiq etilgan.

Xalqaro adabiyotlarda ipoteka kreditlashning iqtisodiy o'sishga ta'siri, moliyaviy barqarorlik va ijtimoiy ta'minotdagi o'rni alohida ta'kidlanadi. Masalan, J. Stiglitz va A. Weiss (1981) kredit bozorlarida axborot assimetriyasi mavjudligini ko'rsatib, ipoteka kreditlarida qarz oluvchilarning to'lov qobiliyatini baholash muhimligini asoslab bergan. D. Diamond va P. Dybvig

(1983) esa moliyaviy vositachilar orqali uzoq muddatli resurslarni jalb qilishning iqtisodiy ahamiyatini ta'kidlagan. World Bank (2023) va OECD (2024) hisobotlarida ipoteka bozorining rivojlanishi uy-joy egaligini oshirish bilan birga, moliyaviy tizimdagi risklarni boshqarish choralari ham talab etishi qayd etilgan.

Rivojlangan davlatlar tajribasida ipoteka kreditlash tizimini takomillashtirish bo'yicha turli mexanizmlar ishlab chiqilgan. Xususan, AQSh va Yevropa Ittifoqida ipoteka bozorining rivojlanishi ipoteka obligatsiyalari, sek'yuritizatsiya mexanizmlari va davlat kafolatlari orqali qo'llab-quvvatlanmoqda. Janubiy Koreya va Turkiya tajribasida esa ipoteka qayta moliyalashtirish institutlarining faoliyati bozordagi barqarorlikni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston olimlari ham ipoteka kreditlash bozorini chuqur o'rgangan. S. S. G'ulomov, B. X. Xodiev, O. Sh. Oripov, D. T. Xodjaevlarning ilmiy ishlarida ipoteka kreditlash mexanizmlarini milliy sharoitda rivojlantirish, uy-joy mulkdorligini kengaytirish va moliya bozorida uzoq muddatli resurslarni jalb qilish masalalari yoritilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020–2025 yillarga mo'ljallangan qaror va farmonlari, xususan, 2020-yil 24-avgustdagi "Ipoteka kreditlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ipoteka bozorining institutsional asoslarini yaratishga xizmat qildi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Iqtisodiyot va moliya vazirligi, shuningdek, ADB (Asian Development Bank) va IMFning tahliliy hisobotlarida ipoteka bozorining jadal o'sishi, ammo hali ham davlat moliyalashtirishiga yuqori darajada qaramligi ta'kidlanadi. 2025-yilgi statistik ma'lumotlar ham bu jarayonni yaqqol tasdiqlaydi: davlat ulushi 67,7% bo'lib, tijorat banklari ulushi sezilarli pasaygani qayd etilgan.

Shu tariqa, mavjud ilmiy va amaliy manbalar ipoteka kreditlash bozorini rivojlantirishda bir qator muammolar mavjudligini ko'rsatmoqda: uzoq muddatli resurslar yetishmasligi, davlat dasturlariga qaramlik, risklarni boshqarish mexanizmlarining sustligi va ipoteka sug'urtasi tizimining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Bu esa O'zbekistonda ipoteka bozorini diversifikatsiya qilish, innovatsion moliyaviy vositalarni joriy etish va xalqaro tajribani keng qo'llash zaruratini belgilab bermoqda.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur tadqiqotda ipoteka kreditlash bozorining hozirgi holatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlarini belgilash maqsadida quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi:

Nazariy tahlil usuli – ipoteka kreditlash bozoriga oid xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlar, xalqaro moliya institutlari (Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Osiyo taraqqiyot banki) hamda O'zbekiston Respublikasi Prezident qarorlari va Markaziy bank hisobotlari o'rganildi.

Statistik tahlil usuli – 2020–2025 yillar oralig'idagi ipoteka kreditlash bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, shu jumladan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida dinamik tahlil amalga oshirildi. 2025-yilning birinchi yarmida ipoteka kreditlash hajmining 37,1% ga o'sishi, qarzidorlar soni va o'rtacha kredit hajmi bo'yicha ko'rsatkichlar batafsil o'rganildi.

Taqqoslama tahlil usuli – O'zbekiston ipoteka kreditlash bozorining rivojlanish tendensiyalari AQSh, Yevropa Ittifoqi, Turkiya va Janubiy Koreya tajribalari bilan qiyoslandi. Bunda ipoteka obligatsiyalari, qayta moliyalashtirish institutlari va davlat kafolatlari kabi mexanizmlarning samaradorligi tahlil qilindi.

Empirik usullar – bank amaliyotida qo'llanilayotgan ipoteka kreditlash shartlari, foiz stavkalari, davlat subsidiyalari va tijorat banklari ulushi haqidagi amaliy ma'lumotlar to'plandi hamda tahlil qilindi.

Sistemali yondashuv – ipoteka kreditlash bozorini moliya bozori, uy-joy bozori va makroiqtisodiy o'sish bilan o'zaro bog'liqlikda o'rganishga alohida e'tibor qaratildi.

Ekonometrik usullar (zarur hollarda) – ipoteka kreditlari hajmining iqtisodiy o'sish, aholining real daromadlari va uy-joy narxlari dinamikasiga ta'sirini aniqlash uchun korrelyatsion va regressiya tahlillari qo'llanildi.

Shu orqali tadqiqotda ipoteka kreditlash bozorining bugungi holati, rivojlanish istiqbollari va takomillashtirish yo'llari nazariy va amaliy asosda aniqlab berildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekiston ipoteka kreditlash bozorining 2020–2025 yillar oralig'idagi dinamikasi shuni ko'rsatadiki, mazkur segment iqtisodiyotning eng tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biriga aylangan.

1. Kreditlar hajmining o'sishi.

2025-yilning birinchi yarmida berilgan ipoteka kreditlari hajmi 9,44 trln so'mni tashkil etdi. Bu 2024-yilning mos davriga nisbatan 37,1% ga yuqori (6,88 trln so'm). Qolgan qarzidorlik hajmi yarim yilda 5,1 trln so'mga oshib, 72,8 trln so'mga yetdi. Bu ipoteka kreditlash bozorining yuqori sur'atlarda kengayayotganidan dalolat beradi.

2. Qarzidorlar soni va o'rtacha kredit hajmi.

Qarzidorlar soni 20,6% ga oshgan, bu esa aholining ipoteka kreditlariga bo'lgan talabining ortib borayotganini ko'rsatadi. O'rtacha ipoteka krediti hajmi

esa 298,6 mln so'mga yetib, 13,7% ga ko'paygan. Bu natija aholining uy-joy xarid qilish imkoniyatlari va uy narxlarining o'sishi bilan bog'liq.

3. Davlat va tijorat banklari ulushi.

2025-yilning birinchi yarmida ipoteka kreditlarining 67,7% i Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan moliyalashtirilgan. Tijorat banklari ulushi esa 23,8% gacha kamaygan. Bu bozorning davlat dasturlariga yuqori darajada qaramligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, tijorat sektorining faolligini oshirish uchun ipoteka obligatsiyalari, qayta moliyalashtirish mexanizmlari kabi instrumentlarni rivojlantirish zarurligi ayon bo'lmoqda.

4. Foiz stavkalari dinamikasi.

Davlat dasturlari doirasidagi ipoteka kreditlari foiz stavkasi 17,5% darajasida saqlanib qolmoqda. Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan ipoteka kreditlari stavkalari esa 25,1% dan 23,5% gacha pasaygan. Bu tijorat sektorida raqobatning kuchayishi va moliyaviy sharoitlarning nisbatan yaxshilanganidan dalolat beradi.

5. Uy-joy bozori faoliyati.

2025-yil II choragida ko'chmas mulk bozorida oldi-sotdi bitimlari soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 9,9% ga ko'paygan. Shu bilan birga, aholining real daromadlari 9,5% ga oshgan, bu ipoteka kreditlariga talabni qo'llab-quvvatlaydi. Uy-joy narxlari esa sekin o'smoqda: birlamchi bozorda 2,6%, ikkilamchi bozorda 2,5%.

6. Asosiy muammolar.

Kam ta'minlangan aholining arzon ipotekaga kirish imkoniyatlari cheklangan;

Davlat dasturlariga yuqori darajada qaramlik mavjud;

Uzoq muddatli moliyaviy resurslar yetishmaydi;

Ipoteka sug'urtasi va risklarni boshqarish tizimi yetarlicha rivojlanmagan.

7. Taklif etilgan yechimlar.

Tijorat ipotekasini kengaytirish va bozor mexanizmlarini kuchaytirish;

Ipoteka obligatsiyalari va qayta moliyalashtirish tizimini joriy etish;

Huquqiy-me'yoriy bazani yanada takomillashtirish va shaffoflikni oshirish;

Kam ta'minlangan qatlamlar uchun maqsadli subsidiyalar mexanizmini ishlab chiqish;

Innovatsion ipoteka mahsulotlarini (ta'mirlash, ikkilamchi uy-joy uchun) joriy etish.

Natijalar:

2025-yil ma'lumotlari asosida olib borilgan tahlil shuni ko'rsatadiki, ipoteka kreditlash bozori O'zbekistonda tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Biroq, davlat dasturlariga yuqori darajada qaramlik, tijorat sektorining past ulushi va moliyaviy resurslarning cheklanganligi bozorning barqaror rivojlanishiga

to'sqinlik qilmoqda. Shu sababli, ipoteka bozorini diversifikatsiya qilish va xalqaro tajribadan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 28 noyabrdagi "Ipoteka krediti mexanizmlarini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5886-son Farmoniga muvofiq Moliya vazirligi va Markaziy bank tomonidan "Aholiga ko'p kvartirali uylardagi kvartiralarini sotib olish uchun bozor tamoyillari asosida ipoteka kreditlari ajratish konsepsiyasi" tasdiqlanib, unga ko'ra yangi tartib doirasida ipoteka krediti oluvchilar jismoniy shaxslar va ushbu kreditlarni berishda qatnashuvchi tijorat banklariga talablar belgilandi.

1. Ipoteka krediti oluvchilarga quyidagi talablar qo'yildi:

- ipoteka krediti kredit olish uchun murojaat qilgan kunida 18 yoshga to'lgan va 50 yoshdan oshmagan O'zbekiston Respublikasi fuqarosi;

- ipoteka krediti bo'yicha hisoblangan foizlarni va asosiy qarzni to'lov jadvaliga muvofiq har oyda qaytarish imkoniyatiga ega bo'lgan doimiy ish joyiga, shaxsiy yordamchi yoki dehqon xo'jaligidan yoxud yakka tartibdagi tadbirkorlik faoliyatidan doimiy daromadga ega bo'lishi;

- qarz oluvchining barcha kreditlari va mikroqarzlari (jumladan olinadigan ipoteka krediti) bo'yicha o'rtacha oylik to'lovlari, ya'ni qarz yuki ko'rsatkichi miqdorining qarz oluvchi va birgalikda qarz oluvchilarning tasdiqlangan o'rtacha oylik daromadiga nisbati 70 foizdan yuqori bo'lmasligi;

- ipoteka krediti ajratish haqidagi arizani ko'rib chiqish vaqtida kredit tashkilotlaridan avval olgan kreditlari bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi mavjud bo'lmagan jismoniy shaxslar ipoteka krediti olishlari mumkin.

2. Ipoteka krediti berishda ishtirok etuvchi banklarga talablar:

- yangi tartib doirasida ipoteka kreditlarini ajratish yuzasidan aniq belgilangan ichki tartibi ishlab chiqilganligi;

- "Fitch Ratings" yoki "Standard & Poor's" xalqaro reyting agentliklarining "V" darajasidan yoki "Moody's Investors Service" reyting agentligining "V2" reytingidan past bo'lmagan darajada uzoq muddatli kredit reytingiga ega bo'lishi;

- oxirgi uch yillik moliyaviy hisobotlariga auditorlik tashkilotining ijobiy xulosasi mavjudligi;

- davlat byudjeti mablag'lari, shu jumladan Moliya vazirligi tomonidan yangi tartibga muvofiq joylashtirilgan moliyaviy mablag'lar bo'yicha muddati o'tgan qarzdorligi bo'lmasligi;

- Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan prudensial normativlarni buzilganligi sababli unga nisbatan ipoteka kreditlarini berilishiga to'sqinlik qiluvchi amaldagi chora va sanksiyalari mavjud bo'lmasligi;

- regulativ kapitali 500 mlrd. soʻmdan kam boʻlmagan tijorat banklari yangi tartib doirasida kreditlashda qatnashish imkoniyatiga ega boʻladi.

Oʻzbekistonda ipoteka kreditlash bozori soʻnggi yillarda jadal rivojlanib, 2025 yilga kelib umumiy kredit portfelida sezilarli ulushni egalladi. Statistik maʼlumotlar ipoteka kreditlari hajmining barqaror oʻsishini va aholi turar-joy sharoitlarini yaxshilashda muhim omil boʻlib xizmat qilayotganini koʻrsatmoqda. Biroq, oʻrganishlar shuni koʻrsatadiki, bozorning toʻliq samarali ishlashi uchun hal etilishi lozim boʻlgan qator tizimli muammolar mavjud. Birinchidan, ipoteka kreditlari boʻyicha foiz stavkalarining yuqoriligi kam daromadli oilalar uchun uy-joy sotib olish imkoniyatini cheklamoqda. Ikkinchidan, ipoteka sugʻurtasi tizimining toʻliq shakllanmaganligi kredit risklarini oshiradi. Uchinchidan, uy-joy narxlarining keskin oʻsishi aholining toʻlov qobiliyatiga nisbatan yuqoriligi sababli ipoteka kreditlash bozori barqarorligiga salbiy taʼsir koʻrsatmoqda.

Shu bilan birga, ipoteka kreditlash tizimining rivojlanishi uy-joy qurilishi, qurilish materiallari ishlab chiqarish va xizmatlar sektorida iqtisodiy faollikni kuchaytirib, mamlakat YaIM oʻsishiga ham sezilarli hissa qoʻshmoqda.

Umuman olganda, 2025 yil tahlillari shuni koʻrsatadiki, ipoteka kreditlash bozorini rivojlantirish istiqbollari keng. Foiz stavkalarini bosqichma-bosqich pasaytirish, davlat kafolatlari va subsidiyalarini samarali mexanizm asosida yoʻlga qoʻyish, ipoteka sugʻurtasini kengaytirish hamda uy-joy bozorida raqobatni oshirish orqali ushbu bozorning barqarorligi taʼminlanadi.

Shunday qilib, ipoteka kreditlash bozorining izchil rivojlanishi nafaqat aholining uy-joy sharoitlarini yaxshilaydi, balki iqtisodiyotning umumiy oʻsishiga ham kuchli turtki beradi.

Adabiyotlar:

1. *Pul va banklar: Darslik / A.A.Omonov, T.M.Qoraliyev; – T.: “Iqtisod-Moliya”, 2021.*
2. *Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari: Darslik / T.I. Bobaqulov, U.A. Abdullayev; - T.: “Iqtisod-Moliya”, 2022.*
3. *I.R.Toymuhamedov, R.R.Tojiyev, A.A.Azlarova, N.R.Bazarova, N.G.Sattorova. Pul va banklar. Darslik. –T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot – matbaa uyi», 2021.*
4. *Oʻzbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati toʻgʻrisida”gi Qonuni. T.: “Oʻzbekiston”, 2020.*
5. *Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki. Oʻzbekiston Respublikasining toʻlov balansi. 2023.*
6. *www.cbu.uz - Oʻzbekiston Respublikasi Markaziy banki sayti*

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

